

Klara Bekmurodova

YURTIM NAVOLARI

She'rlar




"ANDIJON NASHRIYOT-MATBAA"

ochiq aksiyadorlik jamiyati

2005

84(55)6-3

**Ushbu kitobcha Yangiqo'rg'on tumanidagi
iste'dodli yoshlar uyushmasi
homiyligida chop etildi.**



Bekmurodova, Klara
Yurtim navolari. She'rlar.

"Andijon nashriyat-matbaa" OAJ, 2005 yil, 28 bet.

*Klara Bekmurodova she'rlari pishiq-puxta,
ta'sirchan. Ulardagi ayol qalbining mayin kuylari Sizga
ham zavq baxsh etadi deb o'ylaymiz.*

Z. M. Bobur nomli
Andijon viloyati
kutubxonasi
84 (5 O'z)
B 46

© K. Bekmurodova, 2005.
© "ANDIJON NASHRIYOT-
MATBAA" OAJ, 2005.

SIZNI ESLAR KUNLAR KELADI

Muhammad Yusuf xotirasiga

Muhabbat bog'ining guli so'ldimi?
Bulbulning xonishi fig'on bo'ldimi?
Ohu nigohlarga yoshlar to'ldimi?
Endi qo'shiq izlab kimlar keladi?

Oddiy bir so'zida olamcha ma'no,
El dardini erta bilguvchi dono,
Sizga tor keldimi o'tkinchi fano,
Endi izingizdan kimlar keladi?

Sizsiz muhabbatning tor ko'chalari,
Yoddan ko'tarilmas so'z nechalari:
"Toychoqqa aylanib goh kechalari
Tuproqda ag'anab yotgim keladi".

Turkman qizga ko'p bor qildingiz havas,
Kumush va Zaynabni kuylab basma-bas,
She'riyatda erkin oldingiz nafas,
Endi ortingizdan kimlar keladi?

Jayronlar ko'zini yoshlab ketdingiz,
Minglab satrlarni tashlab ketdingiz,
Ixtosmand ko'nglimni g'ashlab ketdingiz,
Sizni eslaguvchi kunlar keladi.

O'ZBEK AYOLI

Turfa rangli bu olam aro,
Bir zaifa, munis, hayoli.
Guldan emas, mehr taftidan
Yaralmishdir o'zbek ayoli.

Garchi guldek nozikligi bor,
Dil tubiga cho'kmagay g'ubor.
Ammo shashtli, olov misoli,
Yonib yashar o'zbek ayoli.

Kichikkina yelkasida jam,
Farzand yuki, shodlik, goho g'am.
Hayot turfa - ishqli, jafoli,
Ko'nib yashar o'zbek ayoli.

Bo'lsa hamki jufti yiroqda,
O'rtansa-da joni firoqda.
Sadoqatli hamda vafoli,
Kutib yashar o'zbek ayoli.

Qalbi daryo, saholarcha keng,
Himmati zo'r, daholarga teng.
Shu tufayli baland iqboli
Kulib yashar o'zbek ayoli.

Chiroyiga lol qolgay falak,
Bahs boylashga chorlaydi malak.
Xuddi ko'kning mohi-hiloli,
To'lib yashar o'zbek ayoli.

AYOL

Har nafas aytgum yonib, hurmatga loyiq so'z - "ayol",
Dunyoda tanho malak, ziynatda tengsizdir ayol.

Dardu sitam o'tida olovlanib yonmoqqa shay,
Boru yo'qni bag'riga olguchi dengizdir ayol.

Bol tomar shirin zabondan, aylagay har
So'z bilan yaxshi-yomonni jamlovchi negizdir ayol.

Farzand uchun alladek topilmas ohangdor qo'shiq,
Jannat ichra har pariga oshno - egizdir ayol.

Bu dilrabolar aksini ne qalam sohiblari
Chizmoqqa so'zlar topolmas, ta'rifi
cheksizdir ayol.



ONAMGA

Dilda yaxshi tilaklarim shul zot uchun,
Farishtai hurga qiyos etmog'im chin.
Go'yo falak tanho uni etgan ijod,
Turgandayin ular bilan dunyo butun.

Boqsam nurli ko'zlarida gardi firoq,
Yuragin bir chekkasini o'rtagan dog'.
Balki farzand armonidir? Azob berib,
Ona ko'ksin tilka-pora etgan, evoh.

Ular uchun, bu kun jonni fido qilay,
Ular kabi bu kun bolam boshin silay,
Haqlariga duo qilib, qo'lni ochib,
Yaratgandan ular uchun sog'liq tilay.

"Jannat bog'i" poyingizda sizga ravo,
Har so'zingiz hadya etar dilga davo.
Iltijolar etay tangrim himmatiga,
Onajonlar, omon bo'ling, chekmang jafo.

Shaydo bo'lay har bir aytgan so'zingizga,
Gullar to'shay bosib o'tgan izingizga.
Madhingizni kuylamoqqa beray ovoz,
Izn bering, endi shoir qizingizga.

SHOIR QALBI

Yurakning tubidan oqqanda tuyg'u,
Ko'zlarni tark etsa bir nafas uyqu.
Oллоh bir quliga aylasa karam,
Ohista tebranar qo'llarda qalam.

Ezgu yo'ldan oqib o'tadi so'zlar,
Niyat xolis, o'ychan boqadi ko'zlar.
Ixtosmandlar she'rin tutsalar qo'lga,
Kimdir ko'ngil bersa, ijodga, yo'lga.

Shoir bergan kabi bemorga davo,
Qalbida his etar jannatliy ma'vo.

EZGULIKKA YO'L

Yaxshi inson, "yaxshi" nomin,
Olmoq uchun ovora bo'l.
Ezgu ishga bergil joning,
Ochiq bo'lsin do'stlarga qo'l.

Kasb aylagin muruvvatni,
Do'st deb bilgil alyorni ham.
G'animat bil har muddatni,
Shunda qo'nmas ko'ngilga g'am.

Aldanmagin dili qora,
Ammo shirin zabonlarga.
O'rin berma, ko'rgil chora,
Tegrangdagi yomonlarga.

OHANGLARGA YO'G'RILAR NAVRO'Z

Giyohlar jonlanar yerning qa'rida,
Xo'shlashmoq-chun tutar qorning baridan.
Sabolarga hamroh keladi hamal,
Boshlanadi yurtda udumu amal.

Elning qozonida qaynar sumalak,
Atrofida jamdir o'ttizta malak.
Qutlug' kunda qutli taralar alyor,
Baxt-iqbolga payvast yangraydi yor-yor.

Eng oliy poyonoz-tillo ostona,
Mehr-la yuzlashar kelin-qaynona.
Ezgulik yo'lida ochilar eshik,
Har uyga ko'rk berar go'dakli beshik.

Osuda kechalar sep yoygan palla,
Baxt kuyin yangratar hayotbaxsh alla.
Otlar dupuridan titraydi vodiy,
Jilovni qo'ymayin tortar suvoriy.

Jo'shib ko'pkariga kirar chavandoz,
Tuyoqlar chaqini taratar ovoz.
Yoru do'stga oshno bo'lar yaxshi so'z,
Ohangga yo'g'rilar oshufta Navro'z.

Momolar tilaydi: "Tinch bo'lsin zamon,
Xayrli kunlarda yashaylik omon".

NAVRO'Z MUBORAK!

Assalom, nurli tong, assalom bahor,
Yana shodlik kuyi yangragay takror,
Yana zavqqa to'lib urmoqda yurak,
Bag'ri bahor elim, Navro'z muborak!

Karnaylar sadosi uyg'otdi elni,
Zavq bilan qarshilab bahoriy yelni.
Sabolarga hamroh bo'lsin yaxshi so'z,
Ruhi baland elga xush kelding, Navro'z!

Navqiron nomingni gulga o'radim,
Tinchlik, omonliging yonib so'radim.
Bayram nash'asidan jarangdor so'zim,
Xush kelcing elimga, qadim Navro'zim!

Duoga qo'l ochgin, yurtim bolasi,
Barakali bo'lsin dehqon dalasi.
Mustajob bo'lgaydir eng yaxshi tilak,
Pok niyatli elim, Navro'z muborak!

BAHORIY SABOLAR

Quyoshli kun.

Yashil gilam yoyib kelding-ku, bahor,
Quvonchdan qalbimga sig'mayotir jon.

Gullar ulashding-ku bog'larga ifor,
Yashil maysalarga ko'mildi jahon.

Lolalar ochildi, o'tdek lovullab,

Chinni piyoladay sofdir gulbargi

Quvnoq qo'shiqlarga olamni burkab,

Sayroqi bulbulning yondi yuragi.

Qalblar quvonadi bugun sevinchdan,

Xushbo'y hidlarini taratar gullar.

Quvonib ketaman yonib ichimdan,

Yorishib kelarkan quyoshli kunlar.

BAXTIM

Yurtim mening siru-sinoatga boy,
Kechasini bezar ko'kda to'lin oy.
O'zbek deb nom olgan elda yashayman,
Jannat yurtim uchun xizmatga shayman.

Tabiatni sevib, o'qib ash'orlar,
Nafis yaproqlardan to'qib shiorlar
Yashab kelmoqdaman shunqorday tetik,
Ilhomim bog'larin nihollari tik.

Ulg'ayar tegramda ikki dilbandim,
Hozircha jujuqlar novvotim, qandim.
Yuragim tubida tuyg'ular kezar,
Orzu-havaslarim umrimni bezar.

Ustozlik ortidan luqmai oshim,
Yaxshilar tufayli sarbaland boshim.
Goho ko'ringil uzra qo'nsa-da ozor,
Unga esh k ochib kirolmas kibor.

Odamlar, men sizga qilaman havas,
Sizning mehringizdan olaman nafas.
Umr sahnasida adl bo'l, taxtim,
She'riyat bor bo'lgin, sen-mening baxtim.

TO'RTLILIKLAR

Bu damlar o'tkinchi, qayg'urma, do'stim,
Koyima taqdirni, to'kmagil ko'z yosh.
Baxting oldindadir, yetadi ko'zim,
Sen tomonlarga ham boqadi quyosh.

Olam baxti sizga yor bo'lsin,
Hamroh bo'lsin shodlik toabad.
Hayotingiz kulgiga to'lsin,
Tilagim shu Siz uchun faqat.

Odamzod bir nochorlikdan yig'laydi,
Ba'zan achchiq kuyingandan yig'laydi.
Ajb dunyo, yig'i faqat g'am demang,
Ba'zan qattiq suyungandan yig'laydi.

Do'stlar, bu bir o'tar dunyo,
G'amxonaga aylanmasin,
Otaxonlar oqil bo'ling,
"Ariq boshdan loylanmasin".

Shirin so'zni ayamangiz,
Bolday tomsin, bog' yarating,
Toki bulbul makon uzra
Boqib hayron o'ylanmasin.

Kimning halol bo'lsa totgani-oshi,
El ichra egilmas, sarbaland boshi.
Afsuski, ko'ngilga og'ir botarkan,
Yomonlar irg'itgan tuhmatning toshi.

Yashayman intilib, umr bog'ida,
Gunohlar qilaman bilmay gohida,
Tazarru qilaman yuragim tilib,
Manglayim sajdaga tekkan chog'ida.

ULUG'LARNI ESLAB

(Bobom Bekmurod ota xotirasiga bag'ishlayman)

Qanot qoqib yil ketidan yillar o'tdi,
Ochiq-oydin so'zlamog'ga zamon yetdi.
Buyuk zotni eslab qo'lga qalam tutdim,
Men Bekmurod bobom bilan faxr etaman.

Ul zot o'zi kim deganlar quloq tutsin,
O'z elining o'tmishini bilib o'tsin,
Bilganlar ham murodiga omon yetsin,
Men Bekmurod bobom bilan faxr etaman.

Necha yillar adolati yurt boshqargan,
El tashvishin, tinchin o'ylab soch oqargan.
"Eng g'ayratli bo'lis" deya nom chiqargan,
Men Bekmurod bobom bilan faxr etaman.

Manas birla Alpomishday savlati bor,
Halol ishlab topgan molu davlati bor,
Xalqi uchun qilgan cheksiz xizmati bor,
Men Bekmurod bobom bilan faxr etaman.

Podshoota soyin suvin poklab bergan,
Ketmontepa elin nonin oqlab bergan.
Yaxshi ishga doim belin bog'lab bergan,
Men Bekmurod bobom bilan faxr etaman.

G'arib boshin silagan zo'r xislati bor,
Qirg'iz, o'zbek eli ichra qimmatini bor.
Devonaga toy mindirgan himmati bor,
Men Bekmurod bobom bilan faxr etaman.

Bosh farzand deb Botirbekning qo'lin tutdi,
Hakimbekka Qur'on ilmi yo'lin tutdi.
Farzandlar ham oqil, dono bo'lib o'
Men Bekmurod bobom bilan faxr etaman.

Mirzaakbar, O'rmonbekday o'g'loni bor,
El ichida topgan obro' va e'tibor.
Zuhrabonu, Fayzixonga ta'rif bisyor,
Men Bekmurod bobom bilan faxr etaman.

Kenjatoyi Mirzaali - zo'r chavandoz,
Uloqlarda ot surgan u beklarga xos.
Ota mehri unga nasib bo'lmadi, rost,
Men Bekmurod bobom bilan faxr etaman.

Urug' - aymoq yig'ilganda so'zlab yursin,
Nabiralar iymon yo'lin ko'zlab tursin,
Bobomizning ruhi bizni qo'llab tursin,
Men Bekmurod bobom bilan faxr etaman.



MAHALLAM

Vatan ostonadan, mehr onadan,
Oqibat boshlanur har bir xonadan.
El ichra bu bir so'z emas o'rinsiz,
Har kim so'z boshlagay ilk makonidan.

Jajji oyog'imdan to tizzam qadar,
Tuproqqa belangan go'daklik pallam,
Topingan hamrohim, do'stu birodar,
Men uchun qadrlı, faxrim - mahallam.

Mashrab dunyosidan so'z ochmay tugal,
Yetmay turib Fazliy nazmiga kallam,
Chustiy baytlarini uqmoqdan avval,
Seni taniganman yurtim-mahallam.

"Nanay" atalganda bu dilbar go'sha,
Dovrug'i ketganda asrlar osha
Dunyo chiroyini tan olgan bekam
O'zingsan mahallam, baridan ko'rkam.

Bulbullar charx urib qilganda navo,
Ko'ksaroy tog'idan kelganda sabo,
Bilingki, ko'ksida tog'dayin viqor,
Nanay ohanglarin kuylar ijodkor.

ARMON

(Afg'on urushi xotiralar:)

Armon tog'i Hinduqush,
armonlaring mo'l ekan,
Necha no'ring ko'rar tush,
bu qandayin yo'l ekan?
Tushki, bo'lmas oxiri,
kimdir kimga yor ekan,
O'zga yurtida Tohiri
Zuhrosiga zor ekan.

So'qmoqlaring yigitlar
poyidan tutar bo'ldi,
Ajdar kabi qonsirab,
komiga yutar bo'ldi,
Ko'zlardan qochdi uyqu,
nola sarosar bo'ldi,
Qiz qalbida bir tuyg'u
yurakni ezar bo'ldi.

Shum aqdir shum bo'lmasa,
sog'-omon qolar edi,
Yo so'ngci bor nafasni
yurtida olar edi,

Balki shahid jonini
ko'rsatib ketar edi,
Armonlarin bildirib
rnanziliga yetardi?

O'n to'qqizda yigitning
ko'rganlari ko'p ekan,
Bolam deya onaning
ushlagani cho'p ekan.
Armon tog'i Hinduqush,
armonlaring mo'l ekan,
Bag'ringda kezar urush,
bu qandayin yo'l ekan?

KITOBIM

Yo'limni to'ldirgan yog'duga,
Yetaklab yetkazgan orzuga.
Ko'zimga baxsh etgan ziyoni,
Kitobim, tanitding dunyoni.

Kitobim - oftobim,
Nur to'la mohtobim.
Tilimdan baralla,
Jaranglar xitobim.

Har sahifang e'zoz etayin,
Bilimlar qasriga yetayin.
So'ng nurli kelajak bag'riga,
Sen bilan minnatdor ketayin.

Siz bilan jarangdor sho'x sozim,
Ey, mening mehribon ustozim.
Kitobni tutdingiz qo'limga,
Kuy bilan yetkazay dil rozim.

HAYOT TO'LQINLARI

Hayot to'lqinida suzib boraman,
Ahyon-ahyon ortga nazar solaman.
Nimaga duch keldim, nimani yengdim,
Nimadan yengildim...
o'yga tolaman.

Dardli kunlarimda chekkanim ko'p g'am,
Baxtiyor onlarda topdilar barham,
Bulutli tunlaru porloq kunimda,
Menga hamroh bo'ldi qo'ldagi qalam.

UMR - SUKUNAT

Ko'z tikib yashayman nigohingizga,
O'tayotgan umr - sukunat!
Bir so'z demoqchisiz hamrohingizga,
Tilga so'z kelmaydi bu fursat.

Yashamoq shuurli - xayolga bandi,
O'tsiz qalbgga bu - totli azob.
Tabiat naqadar saxiy va tanti,
Xayol bilan dillar - bir kitob.

ONA TILIM

Sen - ona tilimsan, ardoqli tilim,
Nomingni tinglasam, zavq olar dilim.
Dunyoga tanitgan o'zbekday elin,
Men uchun ulug'vor, sen - ona tilim.

Yurtim madhiyasi yangroq sen bilan,
Qo'shig'i ohangdor bo'lmog'i sendan.
Lof bo'lmas: "Tengi yo'q zabonim" desam,
Yagona faxrimsan, sen - ona tilim. ♦

Sen borsanki, yorqin yurtning o'tmishi,
Olimman deganlar nechalab kishi.
Navoiy so'zlasa yig'olmas hushin,
Barini lol qilgan sen - ona tilim.

Sen bilan chiroyli Vatan degan so'z,
O'z tilin madh etar necha qora ko'z.
Dunyoda tillar bor o'nlab, hatto yuz,
Lek men-chun ustuvor sen - ona tilim.

NAVOIY VA YANGI AVLOD

Navoiy:

Turkiylar qavmidan Navoiydurman,
Forsiyda she'r bitgan ham Foniydurman.
O'z tilimda tuzdim "Chor devon",
Shodalab terilgan gavharu durman.

Bolalar:

Asrlar qa'ridan kelar bir navo,
Ohangi diltortar, kuyi dilrabo.
Bizlar nazmingizdan nur olgan avlod,
Qutlamoqqa keldik Navoiy bobo.

Navoiy:

Tilingni avayla, omondir boshing,
Elingni avayla, ulg'ayar yoshing,
Qimmatli naqlni yodingda tutsang,
Oltiniga aylanar olgan har toshing.

Bolalar:

O'gitingiz o'qib, tilimiz burro,
"Til ayladi insonni hayvondin judo"
O'zbekim o'z tilin e'zozlar bukun,
Tilim omon bo'lsin, qilingiz duo.

Navoiy:

Elim, qavming ulug', pok kishilar bosh,
O'z tiling o'zingga hamrohu yo'ldosh.
Gulzorni bermasin bulbullar zog'ga.
Tilini sotmasin har keksayu-yosh.

QO'SHIQLAR

ISTIQLOL TENGDOSHLARI

Baxt, ketmagin uyimizdan,
Olam kulsin kuyimizdan.
Perlab turar quyoshimiz,
Istiqlolning tengdoshimiz.

Men Vatanning erka qizi,
Ota-onam yorug' yuzi.
Oilamning eng yoshiman,
Istiqlolning tengdoshiman!

Vatan uchun shahid ketgan
Bobolarning avlodiman.
Elning sabru bardoshiman,
Istiqlolning tengdoshiman.

Dunyo tanir elning - buyuk
Farzandimiz, jondan suyuk.
Istiqlolning tengdoshimiz,
Shundan balanddir boshimiz.

NANAY OHANGLARI

Tog'larning ortidan

ko'ringanda nur,

Tong bilan dillarga

kirganda huzur.

Olqishlab orombaxsh havolarini,

Kuylayman Nanayim

navolarini.

Bog'lari maftunkor,

tog'lari baland,

Dehqoni hosildan boshi sarbaland,

Biling siz so'zimning

ma'nolarini,

Kuylayman Nanayim

navolarini.

Faxrimsan "Ko'ksaroy",

jannatga makon,

Podshoota soyidan

kuch olar xirmon.

Ko'z-ko'z etib mayin

sabolarini,

Kuylayman Nanayim

navolarini.

Istiqlol tufayli
xalqi hur-omen,
Mehru muruvvatni
kuylaydi zamon.
Ko'rib do'stga-do'stning
vafolarini,
Kuylaymar Nanayim
navolarini.
Ona yurt bag'ridan
ketsam gar yiroq,
Dilimni o'rtaydi
o'tli bir firoq.
Sog'inib yulduzli samolarini,
Kuylaymar Nanayim
navolarini

USTOZ

Oloh panohida bir jonman o'zim,
Yaxshiga yondoshgan insonman o'zim.
Yaxshilar sha'niga bor aytar so'zim,
Ustoz, omon bo'ling, bor bo'ling, ustoz.

Ulg'ayib, qo'limda yangrasa sozim,
Olis davralarga yetsa ovozim,
Minnatdor yuragim aytar dil rozin:
"Ustoz, omon bo'ling, bor bo'ling, ustoz!"

Parvozga shaydirman yozib qanotim,
Bobolar qo'llagan buyukdir zotim.
Bugun sizlar uchun qo'shiq bayotim.
Ustoz, omon bo'ling, bor bo'ling, ustoz!

MUNDARIJA

Sizni eslar kunlar keladi.....	3
O'zbek ayoli.....	4
Ayol.....	5
Onamga.....	6
Shoir qalbi.....	7
Ezgulikka yo'l.....	7
Ohanglarga yo'g'rilar Navro'z.....	8
Navro'z muborak.....	9
Bahoriy sabolar.....	10
Baxtim.....	11
To'rtliklar.....	12
Ulug'larni eslab.....	13
Mahallam.....	16
Armon.....	17
Kitobim.....	19
Hayot to'lqinlari.....	20
Umr - sukunat.....	20
Ona tilim.....	21
Navoiy va yangi avlod.....	22

Qo'shiqlar

Istiqlol tengdoshlari.....	23
Nanay ohanglari.....	24
Ustoz.....	26

Adabiy-badiiy nashr
K. Bekmurodova
YURTIM NAVOLARI
(She'rlar)

Muharrir	H. Tursunmatov
Tex. muharrir	M. Mirzakarimova
Kompyuterchi	H. Parpiyev
Musahhih	N. Tojimatova

Bosmaxonaga 2005 yil 1 aprelda berildi.
Bosishga 2005 yil 15 aprelda ruxsat etildi.
Bichimi: 60x84 1/32. Hajmi: 1,25 b/t.
Gazeta qog'ozi. Insl Arial garniturası.
Buyurtma № 711. Tiraji 1000 dona.

"Andijon nashriyot-matbaa" OAJ
bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Andijon shahri,
Navoiy shohko'chasi, 71.